
MARG'ILONLIK ChEMPIONLAR

Marg'ilon shahridagi 2-BO'SM tarbiyalanuvchilari erishayotgan yutuqlar salmoqli. Ayniqsa, joriy yil marg'ilonlik sportchilar uchun omadli bo'ldi.

Ruminiyaning Medjidia shahrida qo'l jangi bo'yicha yoshlar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida BO'SM tarbiyalanuvchisi Shahboz Xayrullaxo'jaev o'z vazn toifasida (46 kg.) g'alaba qozonib, faxrli 1-o'rinni egalladi. Murabbiy Kamoliddin Akbarovning umidli shogirdi, ikki karra jahon chempioni Sh.Xayrullaxo'jaev mamlakatimiz sporti sharafini munosib himoya qilib, yorug' yuz bilan qaytdi.

Shu yil oktyabr oyida Olmaliq shahrida boks bo'yicha O'zbekiston chempionatida murabbiy Ismoiljon Rustamovning 3 nafar shogirdi –Abdulaziz Muhammadaminov, Jasur Muqimjonovlar 1, Yahyoxon Saidxonov 2- o'rinlarni zabt etishdi.

Farg'ona shahrida sentyabr oyida basketbol bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasi o'tkazildi. Musobaqada sport maktabining basketbol murabbiyi Rustam Dadaxonovning shogirdlari Mavluda Mahmudova, Malika Rahimova, Feruza Solieva va Ziyodaxon Hasanovalar viloyat terma jamoasi safida ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni egallashdi.

M.SALIMOVA.

2017-10-26 15:33:35